

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурад Мансур Бобомурадovich**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Толипов Файзулла Саидович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ ҲАМ АУТОРИГА МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

|  |    |
|--|----|
| <b>1. Гонашвили А.С.</b><br>К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ЕВРАЗИЙСКОГО НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО<br>ПРОСТРАНСТВА: ОПЫТ УНИВЕРСИТЕТА ПРИ МПА ЕврАзЭС.....      | 5  |
| <b>2. Sodiqova Shohida Marxaboevna</b><br>ZAMONAVIY IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING UMUMBASHARIY TAMOYILLARI,<br>SHAKLLARI VA SUBYEKTLARI.....            | 15 |
| <b>3. Farfiyev Baxramdjan Atxamdjanovich</b><br>DIN SOTSILOGIYASI FANINING METODOLOGIK MASALALARI XUSUSIDAGI<br>AYRIM MULOHAZALAR.....               | 25 |
| <b>4. Abduraxmonova Manzura</b><br>MAKTABLARDA IJTIMOIY ISH FAOLIYATINING NAZARIY-METODOLOGIK<br>ASOSLARI.....                                       | 34 |
| <b>5. Sodiqova Shohida Marxaboevna, Tagieva Gulsum Gafurovna</b><br>“IJTIMOIY TA’MINOT” TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI.....                      | 40 |
| <b>6. Kayumov Kaxramon</b><br>O‘Z KASBIGA SADOQAT SOTSIAL FENOMEN SIFATIDA.....  | 46 |
| <b>7. Mo‘minov Zokirjon</b><br>TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINING EVOLYUSION TENDENSIYALARI.....  | 52 |
| <b>8. Ахмедова Раъно</b><br>ИНТЕРНЕТ КАК ПРОСТРАНСТВО МАССОВОЙ КОММУНИКАЦИИ.....   | 59 |
| <b>9. Masharipov Baxtiyar</b><br>SIFATIY SOTSILOGIK TADQIQOTLARDA “SHAHAR” IJTIMOIY INFRATUZILMA<br>MAKONINING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI TADQIQI..... | 68 |
| <b>10. Рашидова Шахноза</b><br>МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ<br>ПОДРОСТКОВ.....   | 77 |
| <b>11. То‘рахо‘jaeva Ra’no</b><br>DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING SOTSILOGIK TAHLILI.....   | 84 |
| <b>12. Zaretdinova Nesibeli</b><br>QORAQALPOG’ISTONDAGI IJTIMOIY-DEMOGRAFIK HOLATNI O‘RGANISH<br>DOLZARBLIGI.....                                    | 91 |


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Mo‘minov Zokirjon,**

Namangan davlat universiteti huzuridagi  
TTRPMXQT va MO markazi direktori,  
sotsiologiya fanlari bo‘yisha falsafa doktori (PhD)  
e-mail: zokir\_odiliy@mail.ru

### TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINING EVOLYUSION TENDENSIYALARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15868313>

#### ANNOTATSIYA

Maqolada globallashuv jarayonlarida ijtimoiy va iqtisodiy tizimlardagi intensiv o‘zgarishlar tufayli migratsiya oqimlarining keskin oshishiga sabab bo‘layotganligi va jahonda yangi migratsiya mobilligining paradigmal o‘zgarishlari haqida so‘z boradi. Tashqi migratsiyaning mintaqaviy o‘zgarishlar xususiyatlari ham e‘tiborga molik. Aksariyat migrantlar rivojlanish jarayonidagi yurtlar vakillari bo‘lib, bugungi migratsiya oqimlari shunchaki “bir joydan, boshqa joyga” harakat deb qarash noo‘rindir. Tashqi migrantlarning sal kam uchdan bir qismi rivojlanayotgan bir hududdan boshqasiga ko‘chib o‘tayotganligi kuzatilmoqda. Bugungi kunda, tashqi migratsiya oqimlari jahon hamjamiyati hayotining barcha yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatuvchi global hodisaga aylandi. Muallif jamiyatimizda yuz berayotgan migratsiya jarayonlarining bugungi kunda qay darajada o‘zgarayotganligiga va ushbu o‘zgarishlar migrantlar ijtimoiy mobilligiga ko‘rsatayotgan ta’siri borasida o‘z fikrlarini bayon etgan.

**Kalit so‘zlar:** Globallashuv, jarayon, demografiya, oqim, ijtimoiy, iqtisodiy, tashqi migratsiya, majburiy migratsiya, aholi migratsiyasi, zamonaviy migratsiya.

**Муминов Зокиржон,**

Директор Центра П и ПКРПССО  
при Наманганского государственного университета,  
доктор философии (PhD) по социологии.  
e-mail: zokir\_odiliy@mail.ru

### ЭВОЛЮЦИОННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ВНЕШНИХ МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ

#### АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются процессы глобализации, вызвавшие резкое увеличение миграционных потоков из-за интенсивных изменений социальных и экономических систем, и парадигмальные изменения новой миграционной мобильности в мире. Примечательны также особенности региональных изменений внешней миграции. Большинство мигрантов являются представителями стран, находящихся в процессе развития, и сегодняшние миграционные потоки не следует рассматривать просто как движение «из одного места в другое». Наблюдается, что чуть менее трети внешних мигрантов мигрируют из одного развивающегося

района в другой. Сегодня внешние миграционные потоки стали глобальным явлением, затрагивающим все стороны жизни мирового сообщества. Автор изложил свои взгляды на то, насколько сегодня меняются миграционные процессы, происходящие в нашем обществе, и влияние, которое эти изменения оказывают на социальную мобильность мигрантов.

**Ключевые слова:** глобализация, процесс, демография, поток, социальная, экономическая, внешняя миграция, вынужденная миграция, миграция населения, современная миграция.

**Muminov Zokirjon,**

Doctor of Philosophy (PhD) in sociology

Director of the Center for R and

ATMTSES at Namangan State University

e-mail: zokir\_odiliy@mail.ru

## EVOLUTIONARY TRENDS IN EXTERNAL MIGRATION PROCESSES

### ABSTRACT

The article examines the processes of globalization that have caused a sharp increase in migration flows due to intense changes in social and economic systems, and paradigmatic changes in the new migration mobility in the world. The features of regional changes in external migration are also noteworthy. Most migrants come from countries in the process of development, and today's migration flows should not be viewed simply as movement from one place to another. It is observed that just under a third of external migrants migrate from one developing area to another. Today, external migration flows have become a global phenomenon, affecting all aspects of the life of the world community. The author outlined his views on how much the migration processes taking place in our society are changing today, and the impact that these changes have on the social mobility of migrants.

**Key words:** globalization, process, demography, flow, social, economic, external migration, forced migration, population migration, modern migration.

### KIRISH

Jahon globallashuv jarayonlari jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy tizimlardagi juda tez o'zgarishlar bilan birgalikda migratsiya oqimlarining keskin kuchayishiga va dunyoda yangi migratsiya vaziyatining shakllanishiga olib keldi.

Tashqi migratsiya ko'lamining va hududining kengayishi - rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida demografik nomutanosiblikni ortib borishi, dunyoning bir qator mamlakatlari va mintaqalari o'rtasida iqtisodiy rivojlanishdagi tafovutning kuchayishi, ayniqsa, o'tgan asrning 80-90-yillarida sotsialistik tizimning yemirilishi va uning negizida yangi davlatlarning vujudga kelishi, geoijtimoiy beqarorlikning kuchayishi o'sha davrning bir qator voqealari Afrika va Osiyo mamlakatlarida, Yaqin Sharqda tashqi migratsiya jarayonini ulkan va boshqarib bo'lmaydigan to'lqinlarini vujudga keltirgan. Tashqi aholi migratsiyasining jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan hamda uning globallashuvini belgilovchi eng muhim jarayonga aylangan.

Bu jarayonning eng muhim belgilarini quyidagi tendensiya orqali baholash mumkin:

- tashqi migratsiya hududining misli ko'rilmagan darajada kengayishi;
- tashqi migratsiya oqimlari strukturasi o'zgarishi;
- iqtisodiy va mehnat migratsiyasining hal qiluvchi ahamiyati;
- majburiy migratsiyaning ortishi va geografiasining kengayishi;
- amonaviy dunyo demografik rivojlanishida hududlar tashqi migratsiyasi ahamiyatini ortib borishi.

O'tgan XX asrning 90-yillarida qayd etilgan yuqoridagi tendensiyalarga asosan [1], tabiiy xususiyatga ega bo'lgan yangi statistik ma'lumotlar va ularning XXI asrda namoyon bo'lishining

yangi xususiyatlarini hisobga olgan holda tashqi migratsiya jarayonlarining evolyusion tendensiyalari yoritishga to'xtalib o'tamiz.

### **METODOLOGIYA**

Hozirgi vaqtda dunyoning barcha mamlakatlari u yoki bu darajada global migratsiya oqimlarida ishtirok etmoqda. Davrlar osha har qachon aloqa va transport tizimlarining rivojlanishi hech bir davlatni befarq qoldirmadi hamda migrantlar hamma joyda o'zini namoyon qila boshladi.

Globalashuv jarayonlarida jahon migratsiya oqimlari tarkibi sifat jihatidan o'zgarib boshladi.

Bunda quyidagi asosiy o'zgarishlar kuzatildi:

tashqi migratsiyaning vaqtinchalik uzluksizligi bir muncha o'zgardi;

tashqi migratsiyaning barcha turlari va shakllari mehnat migratsiyasini jadal rivojlanishiga yetarlicha ta'sir o'tkazdi.

Jahon mehnat bozorining globalashuvi migratsiya tabiatining yanada moslashuvchanligini yuzaga keltirib, mehnat migratsiyasi uchun vaqtinchalik chet ellik ishchilarni yollash qabul qiluvchi davlatlarning migratsiya siyosati maqsadlariga asos bo'ldi.

### **ASOSIY QISM**

XXI asrning birinchi yarmida qabul qiluvchi mamlakatlarda chet ellik ishchilarga bo'lgan talab yanada malakali ishchi kuchiga qarab rivojlanmoqda va qabul qiluvchi mamlakatlar mahalliy ishchilar yetishmovchiligini boshdan kechirayotgan bir davrda sanoat va milliy iqtisodiyot tarmoqlariga malakali migrantlarni yollashni rag'batlantirmoqda. Migratsiya oqimining malaka tarkibidagi o'zgarishlar, birinchi navbatda, ko'chib ketayotganlar orasida yuqori darajadagi ma'lumot va kasbiy malakaga ega bo'lganlar ulushini oshirishdan iborat. O'z navbatida, bilimsiz va malakasiz migrantlar o'zlarining "manzil" mamlakatlariga kirishlarini to'sib qo'yadigan yangi muammolarga duch kelmoqdalar. Ushbu tendensiya rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eng og'riqli muammolardan biri bo'lib, u "aqli miya oqimi" ma'juziy iborasini oldi, ya'ni yuqori malakali mutaxassislarning (olimlar, muhandislar, shifokorlar va boshqalar) qaytarib bo'lmaydigan migratsiyasi muammosi vujudga keldi.

Bir qator hisob-kitoblarga ko'ra, 1970-2000-yillarning o'zida rivojlanayotgan mamlakatlarning moliyaviy yo'qotishlari faqat "aqliy oqim"ning o'zidan 60 milliard dollardan oshgan va rivojlanayotgan mamlakatlardan intellektual migratsiyaning umumiy hajmi ularning intellektual salohiyatining 10% dan 30% gacha bo'lgan [2].

Tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, tashqi migrantlarning asosiy qismini erkaklar tashkil etadi. Hisoblarga ko'ra 90-yillarda ayollar tashqi migratsiyada asosan erkak migrantlarning oila a'zolari sifatida ishtirok etgan bo'lsalar, kelajakda ayollarning tashqi migratsiyadagi ulushlari ortib, hozirgi ular aksariyat rivojlangan mamlakatlarda "mustaqil" mehnat migrantlarining deyarli 50 foizini tashkil qila boshladilar.

Ko'p jihatdan jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar sabab xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi asnosida bandlik tuzilmasining o'zgarishiga olib keldi va migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatlarning mehnat bozorida barqaror o'rinlarni (to'qimachilik sanoati, dam olish va ko'ngilochar sanoat, davlat xizmatlari, maishiy xizmatlar va boshqalar) yuzaga chiqardi va migrant ayollarga (uy xizmatlari uchun), shu jumladan, malakasiz mehnatda band bo'lganlarga ehtiyoj doimiy ravishda o'sib bormoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, mavjud bo'shliqlarning muhim qismi jinsiy ish yoki yarim jinsiy ish bilan bog'liq "xavf zonalarini" sifatida tasniflanishi mumkin. Bu mohiyatan marginal bandlik sohalari migrant ayollar uchun kamsitishlarga, o'zlarining erkak migrant hamkasblariga qaraganda ko'proq imkoniyatlarini ifodalaydi.

Ushbu tendensiyalar mehnat migrantlari (birinchi navbatda, ayollar) huquqlarini himoya qilish muammosini migratsiya jarayonlarini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi tashqi va milliy institutlarning ustuvor vazifalaridan biridir.

Tashqi migratsiya oqimlariga asosan ob'ektiv va sub'ektiv sabablar ta'sir qiladi, ular orasida iqtisodiy sabablar ustunlikka ega. O'z navbatida, iqtisodiy va birinchi navbatda mehnat migratsiyasining rivojlanishi tashqi migratsiyaning eng uzoq va barqaror tendensiyasi xarakterini tashkil qiladi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) hisob-kitoblariga ko'ra, XXI asr boshlarida butun

dunyo bo‘ylab 3,2 million kishiga nisbatan 86 milliondan ortiq qonuniy mehnat migrantlari (oilalari bilan birgalikda bu ko‘rsatkich 120–180 million kishiga oshadi) faoliyat yuritgan.

Mehnat migrantlari rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy faol aholisining 4,2 foizidan ko‘p bo‘lmasada, bir qator davlatlar iqtisodiyotning alohida tarmoqlari uchun mehnat migratsiyasining ahamiyati ancha yuqori ekanligi asoslangan.

2004-yilda mehnat migrantlari Lyuksemburgning iqtisodiy faol aholisining deyarli 45 foizini, Avstraliyada 25 foizga yaqinini va Shveysariyada 22 foizini tashkil etgan [3].

Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘plab mamlakatlar mehnat migrantlarining ayrim toifalari uchun manba va boshqa toifadagi mehnat migrantlari uchun “maqsad mamlakatlari” hisoblanadi. Misol uchun, Kanada an’anaviy ravishda mehnat migrantlarining muhim qismi uchun “maqsad mamlakati” bo‘lib kelgan. Biroq, ayni vaqtda ko‘p sonli ishchilarni, ayniqsa yuqori malakaga ega bo‘lganlari Qo‘shma Shtatlarga borishsa, AQSH hukumati Tailand, Myanma, Kambodja va Laosdan ko‘plab malakasiz migrantlarni qabul qilib, o‘z fuqarolarini Isroil, Yaponiya va Tayvan kabi mamlakatlarga jo‘natadi. Jahon mehnat migratsiyasi oqimida Rossiya ham qabul qiluvchi, ham donor davlat sifatida harakatlanadi [4].

Mehnat migratsiyasi har qanday davlat iqtisodiga ta’sir qiladi. Ishchi kuchi import qiluvchi mamlakatlar uchun bu ta’sir asosan soliq to‘lovlarini olish va mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilish bilan bog‘liq mablag‘larni sarflashda bo‘lsa, o‘z navbatida eksport qiluvchi mamlakatlar uchun bu birinchi navbatda mehnatning valyuta daromadlarining barqaror kanalini shakllantiradi, shu jumladan, migrantlarning pul o‘tkazmalari, vositachi firmalar daromadlari va migrantlarning shaxsiy investitsiyalarini yuzaga keltiradi.

Globalashayotgan dunyoda ish izlashda odamlarning tashqi mobilligi tobora ortib borishini inobatga olgan holda, mehnat migrantlarining “kelib chiqqan mamlakatlari” va “maqsadlari” mehnat migratsiyasini kompleks, samarali va adolatli boshqarishni amalga oshirishi lozim. Tashqi migratsiya rivojlanishining xarakterli tendensiyalaridan biri noqonuniy migratsiya ko‘lamining barqaror o‘sib borishidir. Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan cheklovchi migratsiya siyosati kuchayib, maxsus qonunlar qabul qilinganiga qaramay, uning ko‘lami nafaqat kamaymadi, balki aksincha, sezilarli darajada ortib bormoqda.

Noqonuniy migratsiyaning ko‘payishi o‘z navbatida turli omillar bilan o‘zaro bog‘liq. Biroq asosiy masala shundaki, migratsiya ustidan qat’iy nazorat o‘rnatilgan bo‘lsada, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovut va arzon ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyoj, bir tomondan, ishchilarning noqonuniy kirishini rag‘batlantirishni kuchaytirsa, boshqa tomondan, ish beruvchilar uchun noqonuniy hamda arzon mehnat kuchidan foydalanish uchun yo‘l ochadi. Natijada, qonuniy migratsiya imkoniyatlari saqlanib qolgan liberal migratsiya siyosatiga ega mamlakatlarda (jumladan, Avstraliya, Kanada, AQSH) noqonuniy migratsiya tanlov mezonlariga javob bermaydigan, uzoq vaqt kutishga tayyor bo‘lmaganlar uchun muqobildir.

Cheklovchi migratsiya siyosatiga ega bo‘lgan, qonuniy kirish yoki qolish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklangan mamlakatlarda (Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va boshqalar), potensial migrantlarning aksariyati uchun noqonuniy migratsiya ularning iqtisodiy ahvolini yaxshilashning amalda yagona yo‘lidir. Yuqorida aytilganlarning barchasi ko‘plab mamlakatlar uchun noqonuniy migratsiya zamonaviy voqelikning o‘ziga xos hodisasiga aylanishiga olib keladi.

Noqonuniy migratsiyaning haqiqiy ko‘lamini aniq baholash deyarli mumkin emas. Turli bilvosita usullar faqat ularga taxminiy baho beradi xolos.

BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, har yili 2,5 milliondan 4 milliongacha odam davlatlararo chegaralarni noqonuniy kesib o‘tadi. Bundan tashqari, noqonuniy migrantlar safi mamlakatga qonuniy yo‘l bilan kirgan, biroq keyinchalik mamlakatda bo‘lish shartlarini buzgan holda unda qolgan shaxslar tomonidan to‘ldirilmoqda [5].

Majburiy migratsiya - bu aholining tabiatan majburiy bo‘lgan, ya’ni ularga bog‘liq bo‘lmagan sabablar (ijtimoiy va milliy ta’qiblar, tabiiy ofatlar, texnogen avariya, ekologik ofatlar, harbiy harakatlar va boshqalar) tufayli yuzaga kelgan hududiy harakatlari yig‘indisidir. Majburiy migrantlar quyidagi asosiy toifalarni o‘z ichiga oladi: qochqinlar, ko‘chirilganlar (majburiy migrantlar),

boshpana so‘raganlar, ekologik qochqinlar va boshqalar. Ularning aksariyati uchun hal qiluvchi omillar to‘satdan va hayot uchun xavfli bo‘lgan omillar hisoblanadi.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida majburiy migratsiya geografiasining ko‘lami va kengayishi ijtimoiy taranglik va ekologik ofatlar, urushlar va etnik mojarolarning davom etayotgani va qayta paydo bo‘layotgani natijasidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissarligi boshqarmasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2006-yilda dunyoda 32,9 millionga yaqin majburiy migrant bo‘lgan, shundan 13,9 million kishi qochqin, 12,8 million kishi ichki ko‘chirilganlar va 740 mingga yaqin boshpana izlovchilardir.

Insoniyat tarixining aksariyat qismida dunyoning alohida mamlakatlari va mintaqalari aholisining o‘zgarishi birinchi navbatda aholining tabiiy o‘shishi bilan belgilanadi. Biroq, XX asrning ikkinchi yarmida dunyoning demografik rivojlanishida tashqi aholi migratsiyasining roli sezilarli darajada oshdi. Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlarda u aholi o‘shishining asosiy (ba‘zilarida esa yagona) hal qiluvchi omil bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi o‘shish sur‘atlarini kamaytirishga va “demografik bosim” ni kamaytirishga yordam beradi.

Migrantlar asosan qit‘alar ichida harakat qilishadi. Bangladesh, Afg‘oniston, Xitoy va Hindiston kabi Osiyo mamlakatlaridan asosan erkaklar ishlash uchun yaqin Sharqqa ko‘chib o‘tishsa, Shimoliy Amerika mamlakatlari aholisi asosan AQSH va Kanadaga oqib kelishadi. Yevropani o‘z navbatida Afrika, Osiyo va yaqin Sharqdan kelgan migrantlar jozibadorligini ko‘rish mumkin.


Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholishunoslik bo‘limi ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda dunyo bo‘ylab 250 milliondan ortiq “klassik” tashqi migrantlar (ya‘ni o‘zlarining kelib chiqishi o‘z yurtidan boshqa yurtlarda yashovchi odamlar) bo‘lgan, ularning deyarli 60 foizi rivojlangan mamlakatlarda mehnat qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, hozirgi vaqtda dunyoning har 32 million nafar aholisidan biri “klassik” tashqi migrant bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlarda har o‘ninchi aholi tashqi migrant, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa har 70 nafar aholi tashqi noqonuniy migrant hisoblanadi [6].

Tashqi migratsiya ko‘lami o‘shish ko‘rsatkichi qabul qiluvchi davlatlar aholisiga nisbatan tashqi migrantlar ulushining ortishi hisoblanadi. Garchi tashqi migrantlarning umumiy aholi sonidagi ulushi global ko‘lamda ozmuncha oshgan bo‘lsa ham (1960 yildagi 2,5% dan 2005 yilda 3,0% gacha), ba‘zi davlatlardagi o‘zgarishlar ancha sezilarli bo‘ldi. Demak, agar 1960 yilda dunyoning 27 ta davlatida migrantlarning aholi sonidagi ulushi 10% dan oshsa [7], 2023 yilga kelib 100 dan ortiq bunday davlat mavjud edi.

O‘tgan 2023-yilda global migratsiya tendentsiyalari qurolli to‘qnashuvlarning kuchayishi va geosiyosiy keskinlikning oshishi sababli migrantlar sonining xavotirli o‘shishiga olib keldi va rekord darajadagi 114 million kishiga yetdi. Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, Yevropa Ittifoqida boshpana so‘rab murojaat qilganlar soni 21,2 foizga o‘sdi, bu yil oxiridagi bir million arizani ko‘rsatadi – 2016-yildan beri eng yuqori ko‘rsatkich bo‘lib, 2024-yilda ham huddi shunday qiyin vaziyatni bashorat qilinmoqda [8].

BMT Aholi joylashuvi bo‘limining so‘nggi hisob-kitoblariga ko‘ra, 2020-yilda dunyodagi xalqaro migrantlar soni, ya‘ni o‘z mamlakatidan tashqarida yashovchi odamlar 281 millionga yetdi. Migrant ayollar xalqaro migrantlarning 48 foizini tashkil qiladi. Xalqaro muhojirlarning deyarli to‘rttadan uch nafari 20 yoshdan 64 yoshgacha bo‘lganlar, 41 million xalqaro migrant esa 20 yoshgacha bo‘lganlardir. Tashqi migrantlarning asosiy qismi Osiyo va Yevropada (har biri 31 foiz), Shimoliy Amerikada (21 foiz), Afrikada (9 foiz), Lotin Amerikasi va Karib havzasida (5 foiz) va Okeaniyada (3 foiz) istiqomat qiladi [9].

Mamlakat aholisining migrantlar ulushi jihatidan yuqorilari yaqin Sharq mamlakatlari hisoblanadi. Ko‘rishimiz mumkinki, Birlashgan Arab Amirliklarida migrantlar soni mamlakat aholisining 88 foizga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Quvayt, Qatar, Bahrayn va Ummon davlatlarida ham migrantlar soni o‘tgan davrga nisbatan sezilarli ortgan. Bundan tashqari, Qatar ham mehnat migratsiyasi tufayli ekstremal demografik jarayonni boshidan kechirmoqda, ya‘ni mamlakat aholisining 75 foizini erkaklar tashkil etmoqda. Singapur va Ummon migrantlarning yuqori ulushi bo‘lgan oltinchi o‘rinda bo‘lib, ularda 43 foizni tashkil etsa, Saudiya Arabistoni yettinchi o‘rinda bo‘lib, aholining 39 foizi migrantlar hisoblanadi [10].



**1-rasm. Migrantlar ulushi yuqori mamlakatlar**

Anglo-sakson davlatlar orasida, Avstraliya migrantlar soni bo'yicha birinchi o'rinda bo'lib, aholining 30 foizi, Yangi Zelandiyada – 29 foiz, Kanadada – 21 foiz Irlandiyada – 18 foizni tashkil etgan. O'rganishlardan ma'lumki, azaldan yuqoridagi mamlakatlar o'ziga ko'plab migrantlarni jalb qilgan.

G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan Shveysariya migrantlar uchun eng jozibador bo'lib, mamlakat aholisini 29 foizini tashkil qilsa, Shvetsiyada – 20 foiz, Avstriya va Germaniyaning har birida – 19 foizni tashkil qiladi. Sobiq Sovet respublikalari orasida Qozog'istonda hozirgi kunda migrantlar ulushi eng yuqori bo'lib, ular mamlakat aholisiga nisbatan 20 foizini tashkil qiladi.

Turli hisob-kitoblarga ko'ra, dunyoda 20 dan 35 million kishigacha bo'lgan noqonuniy migrantlar soni oxirgi yillarda 100 million kishidan oshgan. Bu ro'yxatga sayyohlar, shuningdek, uzoq muddatli, mavsumiy va oz muddatli harakatdagi migrantlar kiritilmagan. Agar u yoki bu shaklda tashqi migratsiya oqimlarida ishtirok etayotgan aholining barcha toifalari haqida so'z yuritilsa, bugungi kunda yer sharining deyarli har yettinchi aholisi migrant deb ayta olamiz.

### XULOSA

Umuman olganda, hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda umumiy aholi o'sishining qariyb 77 foiz migratsiya o'sishi (ya'ni tashqi migratsiya) hisobiga to'g'ri keladi. 1960-yillarda bu ko'rsatkich 36 foizni tashkil qilgan. Tabiiy o'sish salbiy bo'lgan ko'plab Yevropa mamlakatlarida aholining o'sishi faqat migratsiyaning ijobiy saldosi hisobiga amalga oshiriladi. Tashqi migratsiya nafaqat rivojlangan mamlakatlar aholisining umumiy sonining ko'payishini ta'minlaydi, balki, migrantlarning yosh tarkibini hisobga olgan holda uning tarkibini o'zgartirishga yordam beradi va ko'pincha keksa mahalliy aholidan farq qiladigan ko'p bolali oilalarga nisbatan turli demografik munosabatlarni keltirib chiqaradi [11].

Demografik rivojlanishning hozirgi salbiy tendensiyalarini (birinchi navbatda, aholining tez qarishi) hisobga olgan holda rivojlangan mamlakatlar uzoq muddatda migrantlarning sezilarli oqimini ta'minlashi kerak bo'ladi.

Migratsiya siyosatining ikki tomonlamaligi tashqi migratsiyaning zamonaviy rivojlanishining xarakterli tendensiyasi bo'lib, bu asosan yuqoridagi barcha tendensiyalarning natijasidir [12].

Rivojlanishning hozirgi bosqichida migratsiya siyosatining uch darajasini ajratish mumkin: tashqi, mintaqaviy va milliy [13]. Shu bilan birga, migratsiya siyosatining ikki tomonlama xususiyati barcha uch darajada: tashqi miqyosda (tashqi tashkilotlar manfaatlari bilan alohida davlatlarning milliy manfaatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik natijasida), mintaqaviy va davlatlararo darajada (integratsiyalashgan mintaqaviy guruhlar doirasida migratsiya rejimlarini liberallashtirishga qarshi

tendensiyalarning mavjudligi va ushbu guruhga kirmagan uchinchi davlat fuqarolariga nisbatan ularning migratsiya siyosatini qat'iy lashtirish) va milliy darajada (demografik o'zgarishlar o'rtasidagi ziddiyat sifatida) [14] bir tomondan iqtisodiy manfaatlar, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy va ijtimoiy xavfsizlik masalalari hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

### Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Ionsev, V. A. Tashqi migratsiya: o'rganish nazariyasi va tarixi // Aholining tashqi migratsiyasi: Rossiya va zamonaviy dunyo. V.A.Ionseva. – M.: Dialog-MSU, 1999. – Nashr. 3. – B. 53–105.
2. <https://rg.ru/authors/Marina-Gusenko>
3. Ионсев, В. А. Проблемы «утечки умов» в России (методологические аспекты изучения) // Вестник МГУ. Серия «экономика». – 1996. – № 5; Ушкалов, И. Г., Малаха, И. А. Утечка умов: масштабы, причины, последствия. – М.: Editorial URSS, 1999.
4. Sopemi-2006. Trends in International Migration.-Paris: OECD, 2006. – P. 50.
5. Tashqi migratsiya va rivojlanish // Bosh kotibning BMT Bosh Assambleyasining 60-sessiyasidagi ma'ruzasi. A/60871. – Nyu-York, 2005. – B. 46.
6. World Migration Report 2022. <https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2022-russian>. 07. Dek.2022.
7. International Migration Flows: to and from Selected Countries: The 2005 Revision. – N. Y.: U. N., 2006.
8. ICMPD Migratsionnyy prognoz na 2024 god. <https://www.pragueprocess.eu/news-events/news/805-icmpd-migracionnyj-prognoz-na-2024-god>.
9. Mir, dostoinstvo i ravenstvo na zdorovoy planete. Migratsiya. BMT. <https://www.un.org/ru/global-issues/migration>. 2023-g.
10. C.Gulyamov, M. Muhammedov. Mehnat migratsiyasi va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yo'llari. <https://review.uz/uz/post/mehnat-migratsiyasi-va-uning-salbiy-oqibatlarini-bartaraf-etish>. 24.11.2024.
11. Sharifzhanovich M.B. Physical culture and sports as a factor in human capital //Multidisciplinary and Multidimensional Journal. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 182-187.
12. Muminov Z. Sociocultural features of professional mobility in internal migration.<https://www.scholarzest.com> Vol.2.No.7,July 2021 ISSN:2660-5589. – P-120.
13. Muminov Z. The concept of professional mobility: sociological characteristics and theoretical foundations. DOI10.36074/logos-10.09.2021.40. <https://doi.org/10.36074/logos-10.09.2021>. P-148
14. Parmonov F. Migratsiya mezoni va urbanizatsiya // Adolat– 2020. – № 18.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
VOLUME 7, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000